

## TARIX ZARVARAQLARIDA AYOLLAR SIYMOSI

*Almatova Umida Islomovna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti katta*

*o'qituvchisi.,*

*Qo'chqarova Maftuna Akrom qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada turli zamon va makonda, turli taqdir va tarixga guvoh bo'lgan ayollar va ularning qisqacha faoliyati tarixiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ayollarning har bir jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatli jihatlari mavjud tarixiy adabiyotlar tahlili asosida atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Matriarxat davri, Ona huquqi asari, Qadimgi dunyo tarixi malikalari, To'maris, Choh tangalari, Turkon xotun, Temuriy malikalar, Nodira, Zuhrabegim, Xonzodabegim, Behruzaxonim va Tojixonim, Qurbonjon dodhoh, Hujum harakati, "Ayollar" kuni, "Ayollar" yili.*

Tarixdan to hozirgi kungacha ayollar matonat, mehr-oqibat, go'zallik, jasorat, shuningdek, sadoqat va muhabbat ramzi bo'lib kelgan. Ularning hayotimizdagi o'rni beqiyosdir. Insoniyat tarixining har bir bosqichi alohida yoritilar ekan, unda ayollarning ahamiyati va o'rni haqida so'z yuritiladi. Jumladan, insoniyatning boshlang'ich davrlariga nazar tashlasak, eng birinchi tuzum matriarxatdan boshlangan. Ya'ni ona urug'i davri – bu paytda ayollarning jamiyatdagi o'rni yuqori bo'lgan. Dastlabki urug' jamolari ayol-ona atrofida birlashgan. Barcha muhim ishlar uning zimmasida edi: bola tarbiyasi, yegulik tayyorlash va shu kabi boshqa ishlar. Bu ayollar rolining dastlabki ko'rinishi edi.

Shvetsariyalik olim I.Y.Baxofen oila tarixini o'rganishni boshlab berdi. U "Ona huquqi" degan asarida (1861-y.) o'tmishdan barcha xalqlarda xotin-qizlar hukmron bo'lganligi haqidagi fikrni bayon qildi va shu bilan patriarxal oilaning

azaldan mavjud bo'lganligi haqidagi nazariyaga zarba berdi [Krushkol, 1974, 12-b.]

Qadimgi dunyo tarixida xalqlarning oliy xudolari tasviri va haykallarida ayol siymosi ko'p uchraydi. Bunda Misrdagi Maat, Xatxor, Isida yoki Mesopotamiyadagi Ishtar - bosh ma'budaning tasvirlari yaqqol namunadir. Yoki, To'maris voqeasini keltiraylik. Uning qudratli Ahamoniylar podshosi Kir II ning o'limiga sabab bo'lganligi ayollar jasorat namunasi sifatida tarixda qolgan. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda kuchli sportchi qizlarni To'maris deya ta'riflanishi tarixiy jarayonlar ortidagi haqiqatdir. Qadimgi tarixda alohida e'tirof etilgan – Nerertiti, Ravshanak, Sohibjamol Yelena, Kleopatra kabi go'zal malikalarning tarixdagi o'rni ham sezilarni darajada ekanligini tarixiy manbalar orqali tahlil qilish mumkin.

Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, ayollar ba'zi voqealarga bevosita daxldor bo'lib, uni hal etishda faol ishtirok etgan bo'lsa, ba'zi jarayonlarda muammoli vaziyatlarning keltirib chiqargan. Misol uchun, Sohibjamol Yelenaning o'g'irlanishi yunonlar va Troya o'rtasida 10 yillik urushlarni keltirib chiqargan bo'lsa, so'nggi o'rta asrlar tarixida Xonzodabegim ukasining taqdiri uchun qayg'urib o'zini qurbon qilganligi – ayolga ziddiyatlilik va murosasozlik xos ekanligini aks ettiradi.

Ossuriyada malika Shammuramat o'g'lining yoshligi sabab davlatni bir muddat o'zi idora etgan, o'rta asrlarda Kiyev Rusini Svyatoslav yosh bo'lganligi sababli onasi Olga, Majididdin Davlo yosh bo'lganligi uchun esa Ray viloyatini malika Sayida Xotun bir muddat boshqarib turgan. Bunday vaziyat ko'z oldimizda ayollarning boshqaruv qobiliyati va aql-zakovat egasi sifatida gavdalaniradi. Bobur Mirzo 12 yoshda taxtga o'tirgach onasi Qutlug' Nigorxonim unga davlat ishlarida ko'maklashadi. 1822-yilda Umarxon vafot etgach, Madalixon taxtga o'tirgan, ammo amalda davlatni Nodirabegim boshqargan edi. Uning hayoti ko'pchilik ayollarga ibrat bo'lsa arziydi, sababi Nodira nafaqat vafoli ayol, shoira, balki, davlat boshqaruvchisi, xonlikning ma'naviy hayoti uchun qayg'urgan siymo bo'lib gavdalanadi.

Endi o‘rta asrlar davri – Choch hukmdorining tangasida unga yonma-yon tarzda malika tasviri tushirilganligi boshqaruv ishlarida malikaning ham ishtirokidan darak beradi. Shu o‘rinda, salbiy jarayonlarga ham e‘tiborni qaratishimiz lozim. Anushteginiylar davlat boshqaruviga Turkon Xotunning aralashuvini olaylik. Sulton Muhammad Xorazmshoh hech qachon oansiga qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi an-Nasaviy quyidagicha izohlab uni ikki sababga bog‘lab ko‘rsatgan edi “birinchidan, onasining unga bo‘lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug‘idan ekanligidan.”[Sagdullayev, 2018, 355-b.] Ushbu jarayon ortida davlatni inqiroziga sabab bo‘lgan ayol, o‘zboshimchalik bilan ish tutgan malikaning taqdiri izohlangan.

Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegim esa kaltabinligi tufayli o‘z o‘g‘lining halokatiga va mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan edi. Yana bir misol, Husayn Boyqaro Mirzoning suyukli erkasi Hadicha begim o‘zining kichik o‘g‘li Muzaffar Husayn Mirzoni valiahd sifatida ota taxtiga o‘tqazish maqsadida mislsiz qabihlik va qotillik ishlarini amalga oshiradi[Shamsutdinov, Karimov, 2010, 413-414-b.]

Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Amir Temurning qo‘shini tarkibida ayollardan iborat bo‘linma ham bo‘lgan. Ushbu bo‘linma erkaklar bilan bir safda bo‘lgan va har qanday vaziyatda jang olib borish uchun shay holatda turganlar. Temurning o‘zi juda bilimli va harbiy uquvi borligidan kelib chiqib, ushbu vaziyatni ijobiy baholash mumkin. Bunday darajaga erishish uchun ayollardan sab- matonat kuch va chidam talab etilgani tabiiy edi, albatta.

Amir Temur ayollarga hurmat va e‘zozda qaragan va ular uchun muhtasham saroy va madrasalar qurdirgan. Ularning mahobati go‘zalligi kishini lol qoldiradi. 1404-yilda Amir Temurning onasi Nekuzbibi sharafiga qurib bitkazilgan, go‘zallikda tengsiz Oqsaroy ispan elchisi Ryui Gonzales De Klavixo 1403-yili bu yerdan Samarqand tomon o‘tayotganda hali bitmagan edi. Ammo shunga qaramasdan u o‘z xotiralarida Oqsaroyning go‘zalligidan hayratlanganligi va qoyil qolganligini yozadi: «Zero, butun bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan bo‘lib, u yerda saroyning shuncha bo‘lma va oromgohlarini

ko'rsatdilarki, ular haqida juda uzoq so'zlash mumkin[Shamsutdinov, Karimov, 2010]. Shu bilan birga, saroyda katta xonim hisoblangan Bibixonim (ya'ni Saroymulxonim) uchun Samrqandda go'zal bir me'moriy obida qurdiradi. Shunday bir jarayon uning avlodlari tomonidan ham takrorlangan, masalan, temuriyzoda Shoh Jahon davrida Hindistonda o'zining suyuqli rafiqasi Mumtoz Mahalga atab Tojmahalni qurdirgan.

1514-yilda Sulton Salim va Ismoil I Safaviy o'rtasida urush kelib chiqqan. Bu urushda turklarning qo'li baland keladi, bu urushda Ismoilning rafiqalari Behruzaxonim va Tojixonimlar ham ishtirok etishganliklari haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, safaviylar lashkari orasida ayollar jasadlarining topilishi, Sulton Salimni hayratga solgan, va shoh ularni harbiy ehtirom bilan dafn etishni buyurgan.

Ayollarning martabasi er-yigitlarnikiga qaraganda bir daraja pastda turgan bir davrda, (Qurbonjon)Qurmonjon dodxoh bir nechta hulmdorlar tomonidan e'tirof etilib, hurmat ko'rsatilgan. Qurbonjonning o'zi nafaqat Oloy xalqining hurmatiga sazovor bo'lgan, balki o'ziga sodiq bo'lgan 10 ming otliq qo'shinga boshchilik qilgan. Qo'qon xoni Xudoyor Oloy qirg'izlarini o'ziga bo'ysunuvchi deb e'lon qilib, ularga soliqlar qo'yganida, Oloy malikasi bunga nafaqat qarshi chiqdi, balki Xudoyorxonning ko'chmanchilarga soliq solishdan bosh tortishga, o'zini Oloyning yangi hukmdori deb e'tirof etishga va Oloy hududini o'z qo'liga o'rnamshib olishga muvaffaq bo'ladi. O'zining takabburligi bilan tanilgan xon o'z qarorgohida Qurbonjon dodxohni eng oliyjanob bek sifatida kutib olishga majbur bo'ladi. O'rta Osiyo va butun musulmon Sharqida birinchi marta ayol kishi sharafiga rasmiy ziyofat uyushtirildi. Oloy hukmdorini Buxoro amiri Muzaffarxon jasur va dovyurakligi bois Qurbonjonga dodxoh unvonini bergan va unga „Dodxoh“ unvonini bergan ikkinchi hukmdor bo'lgan. O'sha davrda Qurbonjon dodxoh musulmon davlatining boshida turgan ayollarning kichik toifasiga kirdi[[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz) internet sayti]. Ushbu jarayonlar ortida yevropaliklarning ham “Oloy malikasi” hayotiga qiziqishi ortib borgan va nemis, fransuz va polyak tillarida bir qancha maqolalar chop etilgan. Qurbonjon dodxoh

haqidagi kitob 3 tilda nashr etilgan, qirg'iz, ingliz va rus tillarida. Darhaqiqat, o'z davrining obro'li va audratli hukmdorlari tan olgan ushbu ayol, zamonasining ayollari uchun jasorat va qat'iyat namunasi bo'lgan desak, adashmaymiz.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ayollarga bo'lgan e'tibor yildan-yilga kuchaymoqda. Yurtimizda 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" sifatida nishonlanadi. Ushbu kunni belgilanish tarixiga keladigan bo'lsak, 1927-yil 8-mart kuni "Hujum" harakati natijasida o'zbek ayollarining paranjilarini tashlash, gulxanda yoqish kuni bilan bo'g'liq. Bu diniy davlatning erkinlik davri edi. To'g'ri Sovet Ittifoqi bu bilan boshqa maqsad – arzon ishchi kuchiga ega bo'lish, milliy an'ana va qadriyatlarimizni yo'qotishni ko'zlagan edi. Xotin-qizlar sanoat korxonalariga ishga qabul qilinishi, ularni og'ir mehnat qilishga majbur etdi. Bunday sharoitda ularni "ojiza" ekanligi inobatga olinmadi. Albatta, bu o'z navbatida ayollarning sog'lig'iga jiddiy shikast yetkazgan.

Shu yo'sinda endi jahon miqyosida ba'zi sanalarga e'tibor qaratamiz:

1909-yilning 28-fevral kuni AQSH ilk bor "Ayollar kuni"ni nishonladi. 1911-yilda Daniya, Avstriya, Shveysariya va Germaniya Ayollar kunini nishonlashni boshladi va 1914-yildan ushbu bayram rasmiy tus olgan. Avstraliyada ilk bor bu bayram 1911-yilning 19-martida nishonlangan. Aynan shu kuni jahonda ilk bor ayollarning norozilik namoyishlari va mitinglari boshlandi. Xalqaro xotin qizlar bayramini jahonning 31 ta davlati rasmiy ravishda nishonlaydi. Daniyaning Kopengagen shahri ushbu bayram asoschisi deya e'tirof etildi. 1968-yilda Yangi Zelandiya ushbu kunni bir yilda 4 marta nishonladi" [[www.t.me.muarrix.kutubxonasi](http://www.t.me.muarrix.kutubxonasi) internet sayti]. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Qadimgi Rimda ham bu bayram nishonlanga ekan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu maqolada turli davr, zamon va makonda yashab, faoliyat ko'rsatgan, turli taqdir va tarixlarga guvoh bo'lgan ayollar bilan bog'liq voqealar xususida so'z bordi. Kichik bir izlanishimiz orqali xulosa qiladigan bo'lsak, ayollarning mavqeyi hurmat e'tibori har doim, har vaqt hozirgi ko'rinishda bo'lgan deb ayta olmaymiz, ularni kamsitish nazar-pisand qilmaslik holatlari ham uchrab turgan, ammo shu o'rinda aytib o'tish joizki,

ayollar har doim oilasi uchun har narsaga tayyor, vatani uchun yigitlar safida turib jasorat ko'rsatgan jafokash siymo, shuningdek, oila tayanchi bo'lib kelgan.

Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab ayollarga bo'lgan hurmat va e'tibor yuqori daraja ko'tarildi. Darhaqiqat, O'zbekistonda 1999-yil "Ayollar yili" sifatida belgilandi. Dunyoni egallagan, hurmat-e'tibor, shon-shuhrat qozongan, eng buyuk insonlarni va faylasuf, olim, davlat boshliqlarini ham dunyoga keltirgan zot bu – onadir, ayoldir!.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. I-tom. Toshkent. 2010.
2. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. I-kitob. Toshkent. 2018
3. Krushkol Y.S. Qadimgi dunyo tarixi. I- qism. Toshkent. 1974
4. [www.t.me/muarrixkutubxonasi](https://www.t.me/muarrixkutubxonasi) telegram kanali
5. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) internet sayti